

Toshkent sh.

2025-yil «16» iyun

I. TERMINLAR VA TA'RIFLAR

1.1. Agar matnda boshqacha holat nazarda tutilmagan bo'lsa, Qoidalarda birlik sonda qo'llanilgan so'zlar ko'plik sonni anglatishi va aksincha, ko'plik sonda qo'llanilgan so'zlar birlik sonni ham anglatishi mumkin.

1.2. Quyidagi atamalar quyida keltirilgan ma'nolarni ifodalaydi, Qoidalarda alohida ko'rsatilgan holatlar bundan mustasno:

1.2.1. **UZCARD DUO bank kartasi** – Tashkilotchi tomonidan emissiya qilingan va to'lovlarni amalga oshirish uchun majburiy rekvizitlarni o'z ichiga olgan hamda uning egasiga to'lov infratuzilmalari orqali to'lovlarni amalga oshirish, shuningdek, Tashkilotchi tomonidan belgilangan UZCARD DUO hisobvarag'i bo'yicha boshqa operatsiyalarni bajarish imkonini beruvchi to'lov vositasi, shu jumladan elektron shakldagi to'lov vositasi.

1.2.2. **Randomayzer** – Internet tarmog'idagi www.random.org manzilida joylashgan onlayn xizmat bo'lib, u berilgan ro'yxatdan tasodifiy tarzda bitta UZCARD DUO raqamini tanlab beradi.

1.2.3. **To'lov** – UZCARD DUO bank kartasi egasining tashabbusi bilan amalga oshiriladigan harakat bo'lib, uning natijasida UZCARD DUO bank kartasidan foydalangan holda pul majburiyati bajariladi.

1.2.4. **Sovrin jamg'armasi** – Aksiyani o'tkazish qoidalarda belgilangan tartib va shartlarga muvofiq Aksiya ishtirokchilariga taqdim etish uchun mo'ljallangan pul mablag'lari, mulkiy boyliklar yoki xizmatlar (shu jumladan, pul ekvivalentida) majmuidir. Sovrin jamg'armasi, shuningdek, Aksiyani tashkil etish va o'tkazish bilan bog'liq xarajatlarni ham o'z ichiga olishi mumkin.

II. UMUMIY QOIDALAR

2.1. Ushbu Qoidalalar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Reklama to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, "**Omad kartasi 3.0**" aksiyasini (bundan buyon matnda "Aksiya" deb yuritiladi) o'tkazish shartlarini, uning ishtirokchilarini aniqlash tartibini, ularning huquq va majburiyatlarini, shuningdek mazkur Qoidalarda ko'rsatilgan boshqa shartlarni belgilab beradi.

2.2. Aksiya lotereya yoki tavakkalchilikka asoslangan boshqa turdag'i o'yin hisoblanmaydi.

2.3. Aksiyada ishtirok etish majburiy emas.

2.4. Ushbu Aksiya Tashkilotchi tomonidan o'tkaziladigan rag'batlantiruvchi aksiya bo'lib, u Tashkilotchi tomonidan emissiya qilinadigan UZCARD DUO bank kartalari hajmini oshirish, Bank brendining tanilishi va mijozlar sodiqligini oshirish, Ishtirokchilarining Tashkilotchi brendi, mahsulotlari va xizmatlariga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash va oshirish, ularni moliya bozoridagi o'rnini mustahkamlash va xizmatlarini yanada rivojlantirish maqsadida o'tkaziladigan tadbirlar majmuasidan iborat.

2.5. Aksiya AT “Aloqabank” (bundan buyon matnda “Tashkilotchi” deb yuritiladi) tomonidan tashkil etiladi.

2.6. Tashkilotchining kontakt ma'lumotlari: Telefon raqami: +998 71 230 77-77 Yuridik manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, O'qchi ko'chasi, 2-uy, veb-sayt: www.aloqabank.uz.

2.7. Aksiya O'zbekiston Respublikasi hududida o'tkaziladi.

2.8. Aksiyada **UZCARD DUO** bank kartasi egalari bo'lmish jismoniy shaxslar (O'zbekiston Respublikasining rezidentlari) ishtirok etadilar. Bunda bank kartasini rasmiylashtirish sanasi ahamiyatga ega emas, shu jumladan Aksiya davomida bank kartasini olib, **200 000 so'mdan yuqori** miqdorda naqd pulsiz xarid (tovar yoki xizmatlar uchun to'lov) amalga oshirilgan shaxslar ham qatnashishi mumkin. **Kartadan kartaga pul o'tkazmalari (P2P) va bankomat orqali pul mablag'larini naqd shaklda olish** hisobga olinmaydi va Aksiyada ishtirok etish sharti sifatida qabul qilinmaydi.

2.9. Quyidagilar Aksiya ishtirokchilari bo'la olmaydilar: Aksiya tashkilotchilari, shuningdek, Bank va “Yagona umumrespublika protsessing markazi” AJ bilan mehnat munosabatlarda bo'lgan va/yoki mazkur tashkilotlarda lavozim majburiyatlarini bajarayotgan xodimlar.

2.10. Aksiya bo'yicha to'lovlar yetkazib berilgan tovarlar (bajarilgan ishlar, ko'rsatilgan xizmatlar) uchun haq va/yoki Ishtirokchi uchun moddiy yordam sifatidagi to'lov (mukofot) hisoblanmaydi.

2.11. Aksiya 2025-yil 16-iyun soat 10:00:00 dan 2025-yil 16-dekabr soat 09:59:59 gacha (bundan buyon matnda “Aktsiya muddati” deb yuritiladi) o'tkaziladi.

2.12. Aksiya muddati Tashkilotchining tashabbusi bilan uzaytirilishi mumkin. Aksiya muddati uzaytirilgan taqdirda, Ishtirokchilar bu haqda Tashkilotchining veb-saytida va Internet tarmog'idagi boshqa ommaviy manbalarda tegishli ma'lumotlar joylashtirilishi orqali qo'shimcha ravishda xabardor qilinadilar. Aksiya muddatini qisqartirishga faqatgina u boshlangan kundan e'tiboran kamida o'ttiz (30) kalendar kuni o'tgandan so'ng ruxsat etiladi.

III. AKSIYANING SOVRIN JAMG'ARMASI

3.1. Aksiyaning sovrin jamg'armasi o'z mablag'lari va resurslari hisobidan 180 000 000 (bir yuz sakson million) so'm miqdorida shakllantiriladi va quyidagilarni o'z ichiga oladi:

3.1.1. Har biri 15 000 000 (o'n besh million) so'mdan 12 ta sovrin.

3.2. Sovrin boshqa turdag'i kompensatsiya bilan almashtirilmaydi.

3.3. Sovrinni almashtirishga, uni uchinchi shaxslarga berishga yo'l qo'yilmaydi.

3.4. Sovrin Aksiya g'olibining UZCARD bank kartasiga o'tkazib beriladi.

3.5. Tashkilotchi Aksiya bo'yicha Sovrin jamg'armasini o'zgartirish, shu jumladan, ushbu Aksiya qoidalari ko'zda tutilmagan boshqa Sovrirlarni Aksiyaga kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.

IV. AKSIYADA ISHTIROK ETISH SHARTLARI

4.1. Aksiya ishtirokchisi maqomini olish shartlari (Aksept):

4.1.1. Aksiyada ishtirok etishni istagan ishtirokchilar Aksiya muddati davomida quyidagilarni bajarishlari zarur:

UZCARD DUO bank kartaga ega bo'lish (shu jumladan, Aksiya o'tkazilayotgan davrda rasmiylashtirishi ham mumkin);

UZCARD DUO bank kartasi yordamida **200 000 so'mdan ortiq tovarlar yoki xizmatlar uchun naqd pulsiz to'lovnini amalga oshirish;**

Muhim! Kartadan kartaga o'tkazmalar (P2P) va bankomat orqali pul mablag'larini naqd shaklda olish ishtirok etish sharti bajarilgani sifatida qaralmaydi va tan olinmaydi

4.2. Ishtirokchi Tashkilotchiga yozma murojaat qilish orqali Aksiyada o'z ishtirokini to'xtatishga haqli.

4.3. Aksiya o'tkazish muddati tugaganidan so'ng 5 (besh) ish kuni ichida Tashkilotchi mazkur Qoidalarning barcha shartlarini bajargan ishtirokchilarni aniqlab, ularning identifikatsiya raqamlarini belgilangan muddatda o'zining rasmiy veb-saytida e'lon qiladi.

V. AKSIYA G'OLIBINI ANIQLASH

5.1. Aksiya g'olibi Tashkilotchi tomonidan o'tkaziladigan Sovrin jamg'armasi o'yini orqali aniqlanadi.

5.2. Sovrinlar o'yinida mazkur Qoidalarning 4.1.1-bandiga muvofiq Aksianing majburiy shartlarini bajargan barcha Ishtirokchilar qatnashadilar.

O'yin har oyda o'tkaziladi va 2 nafar g'olib aniqlanadi.

5.3. O'yinni o'tkazish uchun ushbu Qoidalarning 4.1.1-bandida ko'rsatilgan shartlarni bajargan Ishtirokchilarning identifikatsiya raqamlari Randomayzerga yuklanadi. G'olib www.random.org internet manziliga joylashgan Randomayzer algoritmi yordamida tasodifiy ravishda aniqlanadi.

5.4. G'olib Aksianing tegishli bosqichi tugagandan so'ng 10 (o'n) ish kuni ichida aniqlanadi. Yutuqli o'yin natijalari, shuningdek, G'olibning identifikatsiya raqami belgilangan muddatda Tashkilotchining rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

VI. AKSIYA SOVRINLARINI QABUL QILIB OLİSH SHARTLARI VA TARTIBI

6.1. Aksianing har bir ishtirokchisi Tashkilotchining veb-saytida Sovrin o'yini natijalari bilan mustaqil ravishda tanishishi shart.

6.2. Aksiya g'olibini taqdirlash marosimi Aksiya bo'yicha o'yin natijalari e'lon qilingan kundan boshlab 10 (o'n) ish kuni ichida o'tkaziladi.

6.3. Aksiya g'olibini to'g'risidagi ma'lumot olish uchun Tashkilotchining vakillari UZCARD DUO bank kartasiga bog'langan abonent raqami orqali g'olib bilan aloqaga chiqadilar.

6.4. Agar Tashkilotchining vakillari biron-bir sababga ko'ra Aksiya g'olibi bilan bog'lana olmasalar, Aksiya g'olibi ma'lumot berish hamda qayta aloqa uchun telefon raqamini taqdim etish maqsadida Aksiya o'tkazilayotgan davr mobaynida Call-markaz orqali Tashkilotchining vakillari bilan aloqaga chiqish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

6.5. Sovrinni qo'lga kiritgan g'olib sovrinni qabul qilib olgunga qadar Tashkilotchiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishi shart:

6.5.1. pasport yoki ID karta nusxasi;

6.5.2. belgilangan tartibda rasmiylashtirilgan Sovrinni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi;

6.5.3. UZCARD DUO bank kartasining majburiy rekvizitlar aks etgan fotosurati;

6.5.4. Sovrinni oiganlik to'g'risida tilxat va sovrinni olish bilan bog'liq bo'lgan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini mustaqil ravishda to'lashga rozilik;

6.5.5. Tashkilotchi Aksiya shartlarini va amaldagi qonunchilik talablarini lozim darajada bajarish uchun zarur deb hisoblaydigan boshqa hujjatlar.

6.6. Sovrin Aksiyada g'olib chiqqan UZCARD DUO bank kartasi egasiga va/yoki uning qonuniy vakiligagina topshiriladi.

6.7. Sovrin qayta talab qilinishi mumkin emas, g'olibning natijasi bekor qilinadi va u Sovrinni olish huquqidan mahrum etiladi. Ishtirokchining ham, UZCARD DUO bank kartasining ham ro'yxatga olish ma'lumotlariga hech qanday o'zgartirish kiritilishiga yo'l yo'ymaydi. Bunday hollarda Ishtirokchi Aksiyada qatnashishdan chetlashtiriladi, agar u Aksiya g'olib deb tan olingen bo'lsa, Sovrinni olish huquqidan mahrum qilinadi.

6.8. Aksiya g'olibining Sovrinni olish uchun Aksiya g'oliblarini taqdirlash marosimiga kelmasligi, shuningdek, ushbu Qoidalarning 4.5-bandida ko'rsatilgan barcha so'ralgan hujjatlarni Tashkilotchiga taqdim etmasligi g'olibning Sovrinni olishni rad etishi hisoblanadi. Bunday holda, g'olibning natijasi bekor qilinadi va u Sovrinni olish huquqidan mahrum bo'ladi.

6.9. Aksiya g'olib qandaydir sababga ko'ra Sovrinni talab qilmagan yoki undan voz kechgan hollarda, Aksiya Sovrini berilmaydi va Tashkilotchi uni o'z xohishiga ko'ra tasarruf etadi.

6.10. Aksiya g'olibi tomonidan ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan shartlar bajarilmagan taqdirda, Tashkilotchi Aksiya g'olibiga Sovrinni topshirishni rad etish huquqiga ega.

6.11. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Sovrinni topshirish munosabati bilan yuzaga keladigan soliq majburiyatları g'olib tomonidan va uning mablag'lari hisobidan bajariladi.

6.12. Sovringa egalik huquqi va G'olibning tasodifan halok bo'lishi bilan bog'liq barcha risklar Tashkilotchi va Aksiya g'olib o'rtasida Qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan paytdan boshlab G'olibga o'tadi.

VII. AKSIYANING QO'SHIMCHA SHARTLARI

7.1. Aksiya o'tkazilishi haqidagi barcha ma'lumotlar Aksiya boshlanishidan oldin Tashkilotchining veb-saytida o'zbek va rus tillarida joylashtiriladi, boshqa tildagi ma'lumotlar qo'shimcha ravishda ko'rsatiladi. Aksiya o'tkazib bo'lingandan keyin uning to'g'risidagi ma'lumotlarga kirish imkoniyati 6 (olti) oy davomida saqlanib qoladi.

7.2. Aksiya Tashkilotchisi quyidagilar uchun javobgar emas:

7.2.1. Tashkilotchi o'zining rasmiy veb-saytida joylashtirgan Aksiya shartlari bilan Aksiya ishtirokchilarining tanishish imkoniyatiga ega emasliklari;

7.2.2. Aksiya ishtirokchilari tomonidan ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilmasligi/o'z vaqtida bajarilmasligi.

7.3. Aksiyada ishtirok etish bilan Ishtirokchi ushbu Qoidalalar bilan to'liq tanishib chiqqanligini va ularga roziligin tasdiqlaydi hamda quyidagilarga rozilik beradi:

7.3.1. Sovrinni olish bilab bog'liq ushbu Qoidalarda nazarda tutilgan shartlar va tartib;

7.3.2. Aksiya o'tkazilishi jarayonida Ishtirokchi uchinchi shaxslarning huquqlarini buzishi natijasida Tashkilotchiga nisbatan uchinchi shaxslar tomonidan qandaydir e'tirozlar bildirilgan taqdirda, Ishtirokchi bunday nizolarni mustaqil ravishda hal etish va Tashkilotchini uchinchi shaxslarning shikoyatlari hamda da'volaridan ozod qilish majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

7.4. Firibgarlik harakatlari, til biriktirish, ma'lumotlarni soxtalashtirish holatlari, Tashkilotchi yoki uning vakili bilan, shuningdek mukofot olishdan bevosita yoki bilvosita manfaatdor bo'lgan boshqa shaxslar bilan to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita kelishuvlar mavjudligi aniqlanganda, yagona Ishtirokchi bilan yoki Ishtirokchilar guruhi bilan birgalikda harakat amalga oshirilayotganligi ma'lum bo'lganda, Tashkilotchi bir tomonlama tartibda ishtirokni to'xtatish va berilgan Sovrinni qisqartirish/bekor qilish huquqiga ega.

7.5. Aksiya tashkilotchisi o'zining rasmiy veb-saytida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali istalgan vaqtida Aksiya qoidalarini o'zgartirish huquqiga ega. Aksiya ishtirokchilari yuqorida ko'rsatilgan saytlardagi ("Umumi qoidalar" 2-bo'limida keltirilgan havolalar orqali) tegishli o'zgarishlarni tekshirib, Aksiya qoidalarining yangilanishini mustaqil ravishda kuzatib borishlari shart. Ushbu Qoidalarga kiritilgan o'zgartirishlar/qo'shimchalarda boshqacha tartib bevosita belgilanmagan bo'lsa, bunday o'zgartirishlar e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

7.6. Aksiya tashkilotchisi olingen ma'lumotlarni to'plash va keyinchalik ulardan foydalanish jarayonida shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilish shuningdek bank sirini muhofaza qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga rioya etilishini kafolatlaydi. Ma'lumotlarni boshqa shaxslarga faqat O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan asoslar va tartibga muvofiq taqdim etish mumkin. Aksiya ishtirokchisi tomonidan ushbu Qoidalarda ko'rsatilgan harakatlarning bajarilishi uning shaxsga doir ma'lumotlarni qayta ishlashga rozi ekanligini anglatadi.

7.7. Tashkilotchi Aksiya ishtirokchisining xatolari natijasida yuzaga kelgan hech qanday oqibatlar, jumladan ko'rilgan zararlar uchun ham javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

7.8. Tashkilotchi, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu Qoidalalar talablarini inobatga olgan holda, o'z ixtiyoriga ko'ra, Aksiyada ishtirok etish hujjatlarni qalbakilashtirayotgan yoki qalbakilashtirishdan foya olayotgan yoxud O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik talablarini buzish niyatida ushbu Qoidalarga zid ravishda harakat qilayotgan har qanday Ishtirokchining ushbu Aksiyadagi ishtirokini taqiqlash huquqiga ega.

7.9. Tashkilotchi istalgan vaqtida Aksiyada firibgarlikning oldini olish maqsadida qo'shimcha texnik cheklar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi. Agar biror ishtirokchining nohalol xatti-harakatga urinishi aniqlansa, u Aksiyada ishtirok etishdan chetlashtiriladi va ilgari olgan mukofoti bekor qilinishi mumkin.

7.10. Tashkilotchi Aksiyada ishtirok etish jarayonining halolligini o'zining mavjud texnik imkoniyatlari asosida, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi va ushbu Qoidalar talablarini inobatga olgan holda mustaqil ravishda baholaydi.

7.11. Tabiiy ofatlar, yong'in, suv toshqini, har qanday turdagи harbiy harakatlar, qamallar, pandemiya bilan bog'liq karantin choralari, Aksiya o'tkaziladigan hududda amal qilayotgan qonunchilikdagi jiddiy o'zgarishlar, shuningdek, Tashkilotchi nazorat qila olmaydigan boshqa holatlar kabi fors-major holatlari yuzaga kelganda Tashkilotchi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi belgilangan tartibda javobgar bo'lmaydi.

7.12. Ushbu Qoidalarda ko'zda tutilmagan munosabatlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi muvofiq tartibga solinadi.

7.13. Taraflarning javobgarlik me'yordi hamda nizolarni hal qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq belgilanadi. Aksiyani o'tkazish bilan bog'liq barcha nizolar muzokaralar yo'li bilan hal qilinishi kerak. Muzokaralar yo'li bilan kelishuvga erishishning imkonni bo'limgan taqdirda, nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi muvofiq, mazkur Qoidalar ijro etiladigan joydagi O'zbekiston Respublikasining tegishli sudida ko'rib chiqilishi lozim. Tashkilotchining joylashgan joyi ushbu Qoidalarni bajarish joyi hisoblanadi. Da'vo tartibiga rioya qilish majburiyidir.

VIII. TASHKIOTCHINING MANZIL VA REKVIZITLARI

Bankning to'liq nomi	Aksiyadorlik tijorat «Aloqabank»
Bankning qisqartirilgan nomi	AT «Aloqabank»
Bank manzili	100164, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Tepamasjid Ko'chasi 4-uy.
Telefon	+998 71 230-77-77, +998 71 230-44-44
Veb-sayt	www.aloqabank.uz
Elektron pochta	info@aloqabank.uz
MFO	00401
STIR	200829053
SWIFT	JSCLUZ22